

Hurmatli yo'lovchilar!

Tel-Aviv shahrida "O'zbekiston havo yo'llari" MAK qatnovlariga Ben-Gurion aeroportida xizmat ko'rsatiladi. Bu yerda 2 ta terminal faoliyat ko'rsatadi. Milliy aviakompaniya yo'lovchilariga 3-sonli terminalda xizmat ko'rsatiladi. Uchib ketuvchi yo'lovchilar zali ushbu terminalning 3-qavatida joylashgan bo'lib, to'rtta sektorga bo'lingan - A, B, C, D, har bir sektor o'z navbatida ikkita zonaga bo'linadi – aviatsiya xavfsizligi nazoratidan o'tish zonasi va yo'lovchilarni hamda ularning bagajini ro'yxatdan o'tkazish va rasmiylashtirish zonasi.

Yo'lovchilarni nazoratdan o'tkazish va ro'yxatga olish tartibi:

- MAK yo'lovchilari boshqa aviakompaniyalarning yo'lovchilari singari majburiy tarzda aviatsiya xavfsizligi nazoratidan o'tadilar, so'ngra ularning bagajiga va pasportiga aviatsiya xavfsizligi nazoratidan o'tganliklari to'g'risidagi tegishli stiker yopishtirib qo'yiladi.
- so'ngra yo'lovchilar "O'zbekiston havo yo'llari" MAK logotipli ro'yxatdan o'tish ustunchalariga borishib, qatnovga ro'yxatdan o'tadilar va o'z bagajlarini rasmiylashtiradilar.
- aviachiptalar standart tarzda ro'yxatdan o'tkazilib va bagajlari rasmiylashtirib bo'lingach, yo'lovchilarga samolyotga o'tirish talonlari yozib beriladi, unda HK sahnidagi o'tiradigan o'rni ko'rsatilgan bo'ladi. Bagajga esa identifikatsion bagaj birkalari yopishtiriladi va u umumiy bagaj birkasi bo'yicha jo'natiladi. Yo'lovchilarda nostandart bagaj (quti, yul xaltasi, elektr texnika va h.k.) bo'lganda bunday bagaj belgilangan tartibda tashish uchun rasmiylashtiriladi, biroq bagajga ishlov berish zonasiga olib boradigan umumiy bagaj tasmasi orqali jo'natilmaydi. Nostandart bagaji bo'lgan yo'lovchi bagajni aviatsiya xavfsizligi nazoratidan o'tkaziladigan maxsus zonaga yuboriladi, undan o'tgan bagaj maxsus jihozlangan yuk lifti orqali bagaj bo'linmasiga tushadi.
- so'ngra yo'lovchilar qo'l yuki va yonlaridagi buyumlarni aviatsiya xavfsizligi nazoratidan o'tkazadilar, shundan so'ng pasport nazoratidan o'tiladi va undan steril taqsimlash zonasiga, undan esa HK ga o'tirish uchun ma'lum qatnovga ajratilgan geytga o'tiladi.